


XI. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapdi.

Jumladan, 2023-yil 1-oktabr holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 25 370 mingtani tashkil etib, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 21 528 mingtani tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar
fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2023- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

16 641



Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

2 134



Oilaviy korxonalar



402

Boshqa korxonalar

2 408



Xususiy korxonalar

20



Aksiyadorlik jamiyati

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


3 176



12,5 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

3 549



14,0 %

Sanoat

1 896



7,5 %

Qurilish


7 414



29,2 %

Savdo

951



3,7 %

Tashish va saqlash

1 335



5,3 %

Yashash va ovqatlanish

455



1,8 %

Axborot va aloqa

488



1,9 %

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

6 106




24,1 %

Boshqa turlar


Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 2023-yil yanvar- sentabr oylarida)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Shunda, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan yashash va ovqatlanish 106 tadan 260 taga (o‘shish 154 taga), tashish va saqlash – 128 tadan 152 taga (o‘shish 24 taga) ko‘paydi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Tumanlar kesimida


Amudaryo	350
To'rtko'l	330
Nukus	331
Beruniy	304
Kegeyli	200
Qo'ng'iro't	192
Qonliko'l	169
Ellikqal'a	172
Chimboy	169
Xo'jayli	148
Nukus sh.	135
Mo'ynoq	131
Qorao'zak	130
Bo'zotov	116
Shomanay	109
Taxiatosh	99
Taxtako'pir	91



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura



O'rmonchilik va yog'och
tayyorlash


Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va
bu sohalarda xizmat
ko'rsatish

**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy ta'rifi**

Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)


Tumanlar kesimida

Nukus sh	646
Amudaryo	351
Beruniy	312
Bo‘zotov	59
Qorao‘zak	160
Kegeyli	115
Qo‘ng‘irot	273
Qonliqo‘l	74
Mo‘ynoq	135
Nukus	93
Taxiatosh	127
Taxtako‘pir	98
To‘rtko‘l	333
Xo‘jayli	198
Chimboy	151
Shomanay	89
Ellikqal‘a	335



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi uch yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalarini sonining o‘shish sur‘ati 106,8 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,0 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,0 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish 102,6 foiz); 4,9 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘shish 91,1 foiz); 2,3 foizini suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish (o‘shish 113,9 foiz) va 0,8 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash (o‘shish 81,8 foiz) tashkil etgan.



Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar 2023- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

Tumanlar kesimida

Nukus sh	847
Amudaryo	76
Beruniy	90
Bo‘zotov	20
Qorao‘zak	49
Kegeyli	53
Qo‘ng‘irot	94
Qonliko‘l	37
Mo‘ynoq	34
Nukus	87
Taxiatosh	53
Taxtako‘pir	18
To‘rtko‘l	145
Xo‘jayli	103
Chimboy	48
Shomanay	31
Ellikqal‘a	111



O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 56,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 72,4 foizga oshgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 16,4 foiz ulushni tashkil etib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 90,7 foizga oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 27,4 foiz ulushni va 76,2 foiz o‘shish sur‘atini tashkil etdi.

311 Fuqarolik obyektlarini qurish

520 Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


1 065 Bino va inshootlar qurish

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy ta‘rifi

Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2023 yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

Tumanlar kesimida

Nukus sh	2 088
Amudaryo	628
Beruniy	700
Bo‘zotov	57
Qorao‘zak	157
Kegeyli	197
Qo‘ng‘irot	412
Qonliqo‘l	172
Mo‘ynoq	154
Nukus	166
Taxiatosh	237
Taxtako‘pir	92
To‘rtko‘l	855
Xo‘jayli	404
Chimboy	373
Shomanay	200
Ellikqal‘a	522



Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 7 409 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 65,3 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘shir sur‘ati 98,9 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 24,5 foiz ulushni tashkil etib, o‘shir sur‘ati 112,6 foizni tashkil etdi;


- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘mirlash yo‘nalishida 10,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘shir sur‘ati 121,8 foizni tashkil etdi.



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2023- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

Tumanlar kesimida

Nukus sh	185
Amudaryo	41
Beruniy	37
Bo‘zotov	1
Qorao‘zak	5
Kegeyli	15
Qo‘ng‘irot	36
Qonliko‘l	4
Mo‘ynoq	4
Nukus	12
Taxiatosh	15
Taxtako‘pir	7
To‘rtko‘l	33
Xo‘jayli	35
Chimboy	18
Shomanay	5
Ellikqal‘a	35



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning – 488 ta yoki 2,0 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

94,5 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘shish sur‘ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 107,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta‘minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 3,9 foizni tashkil etib, o‘shish sur‘ati 67,9 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta‘minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,6 foizini tashkil etib, o‘shish sur‘ati 80,0 foizni tashkil etdi;




Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

Tumanlar kesimida


Nukus sh	385
Amudaryo	157
Beruniy	106
Bo‘zotov	11
Qorao‘zak	29
Kegeyli	45
Qo‘ng‘irot	119
Qonliqo‘l	32
Mo‘ynoq	30
Nukus	12
Taxiatosh	24
Taxtako‘pir	20
To‘rtko‘l	130
Xo‘jayli	58
Chimboy	50
Shomanay	21
Ellikqal‘a	106



2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur‘ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 120,4 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 7,3 foiz ulushini tashkil etdi;


- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 92,7 foiz ulushini tashkil etdi.




Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma‘lumotlar

(2023- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)


Yillar kesimida




Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida jamiga nisbatan ulushi



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish




Boshqa turlar

Tumanlar kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Nukus shahrida (25,8 foiz), To‘rtko‘l (10,5 foiz), Beruniy (8,7 foiz), Amudaryo (8,3 foiz) va Ellikqal‘a (6,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma‘lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar
(2023 yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 1 171 taga ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tumanlar kesimida


Nukus sh.	313	Nukus	64
Amudaryo	312	Taxiatosh	87
Beruniy	173	Taxtako‘pir	71
Bo‘zotov	11	To‘rtko‘l	444
Qorao‘zak	27	Xo‘jayli	106
Kegayli	24	Chimboy	22
Qo‘ng‘irot	114	Shomanay	21
Qonliko‘l	113	Ellikqal‘a	204
Mo‘ynoq	28		

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma‘lumot

2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)




Mas‘uliyati cheklangan jamiyati - bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta‘sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta‘sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati hisoblanadi. Mas‘uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 21,6 mingta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 16,6 mingtasi mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Tumanlar kesimida

Nukus sh.	4 659	Nukus	688
Amudaryo	1 336	Taxiatosh	406
Beruniy	1 440	Taxtako‘pir	234
Bo‘zotov	318	To‘rtko‘l	1 578
Qorao‘zak	545	Xo‘jayli	900
Kegayli	636	Chimboy	802
Qo‘ng‘irot	1 041	Shomanay	345
Qonliko‘l	322	Ellikqal‘a	904
Mo‘ynoq	487		

Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar
2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda



Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 78,1 foizni tashkil etdi.


Tumanlar kesimida

Nukus sh.	540	Nukus	30
Amudaryo	110	Taxiatosh	112
Beruniy	217	Taxtakopir	64
Bo‘zotov	11	To‘rtko‘l	213
Qorao‘zak	45	Xo‘jayli	95
Kegayli	54	Chimboy	89
Qo‘ng‘irot	199	Shomanay	142
Qonliko‘l	85	Ellikqal‘a	359
Mo‘ynoq	43		

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot 2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra,

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 143 dan 153 taga yoki 107,0 foizga oshgan.

Tumanlar kesimida

Nukus sh.	39	Nukus	8
Amudaryo	4	Taxiatosh	6
Beruniy	6	Taxtako‘pir	2
Bo‘zotov	6	To‘rtko‘l	6
Qorao‘zak	7	Xo‘jayli	5
Kegayli	7	Chimboy	2
Qo‘ng‘irot	9	Shomanay	2
Qonliko‘l	8	Ellikqal‘a	1
Mo‘ynoq	35		

**Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma‘lumot**
2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda



O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e‘tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 81 tasi qo‘shma korxonalar, 72 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.



Xitoy Xalq Respublikasi



Rossiya Federatsiyasi



Qozog‘iston Respublikasi



Turkiya Respublikasi



Janubiy Koreya



Boshqa davlatlar

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni**
(2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

<u>xorijiy korxonalar</u>		<u>qo‘shma korxonalar</u>
20	<u>Nukus sh.</u>	19
15	<u>Mo‘ynoq</u>	20
2	<u>Oo‘ng‘irot</u>	7
4	<u>Oonliko‘l</u>	4
6	<u>Nukus</u>	2
2	<u>Oorao‘zak</u>	5
2	<u>Kegeyli</u>	5
5	<u>Taxiatosh</u>	1
2	<u>To‘rtko‘l</u>	4
4	<u>Beruniy</u>	2
-	<u>Bo‘zotov</u>	6
2	<u>Xo‘jayli</u>	3
3	<u>Amudaryo</u>	1
1	<u>Taxtako‘pir</u>	1
1	<u>Chimboy</u>	1
2	<u>Shumanay</u>	-
1	<u>Ellikqal‘a</u>	-

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.